

O'MMda yong'in xavfsizligi mashqlari

2025 4 April

Bugun, 4-aprel kuni Uzbekistan Airways O'quv-mashg'ulot markazida "Yong'in xavfsizligi xizmati" MCHJ boshqaruv organlari, fuqaro muhofazasi tuzilmalari va xodimlarining yong'in paytidagi harakatlari" mavzusida yong'in xavfsizligi bo'yicha rejali mashg'ulotlar bo'lib o'tdi.







Tadbir doirasida O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi mutaxassislari tomonidan yong'in sodir bo'lganda o'zini tutish qoidalari, shuningdek, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish algoritmlari bo'yicha batafsil yo'riqnomalar o'tkazildi.







Mashg'ulotlar davomida jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish jarayoni namoyish etildi, shuningdek, yong'in oqibatlarini bartaraf etish va qutqaruv ishlarini olib borishda qo'llaniladigan texnik vositalar namoyish etildi.







